



# Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

2018 yil 1 fevral holatiga

## RAQAMLAR:

- Faoliyat ko`rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **6,4 foizga o'sdi**
- Faoliyat ko`rsatmayotgan korxonalarning ulushi **1,3 f.p. kamaydi**
- Tugatilgan korxonalarga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar **31,8 barobarga ko'proq**

Joriy yilning 2 oy yakuni bo'yicha viloyatda 350 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 37,3 foizga ko'pdir.

Shuningdek faoliyati tuga-tilgan korxona va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 11,7 foizga kamaygan hamda ularningsoni 11 tani tashkil etilganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko`rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 1,5 foiz (0,2 ming birlik) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 13,9 mingtani tashkil etgan.

Faoliyat ko`rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Termiz shahrida (20,5 foiz), Denov (12,0 foiz), Jarqo'rg'on (7,9 foiz) va Termiz (7,1 foiz) turmanlarida kuzatilmogda.

## Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari), ming birlikda

## ***Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar***


***va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi***

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari,*

*2018 yilning 1 fevral holatiga)*

	<b>Ro'yxatdan o'tgan</b>		<b>Faoliyat ko'rsatayotgan</b>	
	<b>ming birlik</b>	<b>jamiga nisbatan %</b>	<b>ming birlik</b>	<b>jamiga nisbatan %</b>
Surxondaryo viloyati	<b>14,7</b>	<b>100,0</b>	<b>13,9</b>	<b>100,0</b>
Termiz sh.	2,9	19,8	2,9	20,4
<i>mumanlar:</i>				
Oltinsoy	0,6	4,1	0,6	4
Angor	0,7	4,9	0,7	4,9
Boysun	0,7	4,9	0,7	5
Muzrabot	0,6	4	0,6	4
Denov	1,8	11,9	1,7	12
Jarqo'rg'on	1,1	7,8	1,1	7,9
Qumqo'rg'on	0,9	6,2	0,8	6
Qiziriq	0,7	5,1	0,7	5
Sariosiyo	0,9	5,8	0,8	5,7
Termiz	1,0	6,8	0,9	7,1
Uzun	0,9	5,9	0,7	5,5
Sherobod	1,0	6,6	0,9	6,6
Sho'rchi	0,9	6,2	0,8	5,9

**Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, % da**



Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 94,5% ni, shu bilan birga jami korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulishi 5,5% ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda va bu ko'rsatkich esa yil boshiga nisbatan taqqoslanganda o'zgarishsiz qolgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari boyicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 24,2 foiz savdoda, 12,3 foiz sanoatda, 10,8 foiz qurulishda, 6,7 foiz qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 7,2 foiz yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 4,7 foiz tashish va saqlash, 1,6 foiz axborot va aloqa, 1,7 foiz sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 30,8 foiz boshqa faoliyat turlari hissasiga to'gri keladi.

### **Faoliyat ko`rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da**

■ Qishloq, o'rmon va baliq  
xo'jaligi

■ Sanoat

■ Qurilish

■ Savdo


■ Tashish va saqlash

■ Yashash va ovqatlanish  
bo'yicha xizmatlar

■ Axborot va aloqa

■ Sog'liqni saqlash va ijtimoiy  
xizmatlar ko'rsatish

■ Boshqa turlari



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning ulushi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (-1,7 f.p.), savdoda (-1,5 f.p.) va boshqa turlari (-0,4 f.p.) kamayganligi, buning natijasida sanoatda hamda axborot va aloqada (+0,1 f.p.), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (+0,3 f.p.), tashish va saqlashda (+0,5 f.p dan), qurulishda (+0,8 f.p.), shuningdek yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (+0,9 f.p.) faoliyat turlarida ulushining o'sishiga olib keldi.

## Faoliyat ko`rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan ulushi, foiz punktda

Iqtisodiy faoliyat turlari nomi	01.02.2018 y.	01.02.2017 y.	farqi (+)
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1,7	3,4	-1,7
Savdo	24,2	25,7	-1,5
Axborot va aloqa	1,6	1,5	0,1
Sanoat	12,3	11,3	1
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	6,7	6,4	0,3
Qurilish	10,8	10	0,8
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	7,2	6,3	0,9
Tashish va saqlash	4,7	4,2	0,5
Boshqa turlari	30,8	31,2	-0,4

## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni


2018 yil 1 fevral holatiga faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 59 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 3 taga yoki 5,4 % ga o'sgan.

### Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Termiz shahar 24 ta (40,7%), Jarqo'rg'on tumani 8 ta (13,6%), Termiz tumani 5 ta (8,5%) va Qumqo'rg'on tumanlari 5 ta (8,5%) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Oltinsoy tumani 2 ta (3,4%), Denov tumani 2 ta (3,4%), Angor tumani 1 ta (1,7%) va Uzun tumani 1 ta (1,7%) hissalariga tog'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

### **Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning hudular kesimidagi soni, birlikda**



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 fevral holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 33 ta (56,0%), savdoda 7 ta (11,8%), Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 7 ta (11,8%), Tashish va saqlashda 4 ta (6,8%), boshqa turlarida esa 4 ta (6,8%) tashkil qilgan, eng kamlari esa Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 1 ta (1,7%), Axborot va aloqada 1 ta (1,7%), Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 1 ta (1,7%) va Qurilishda 1 ta (1,7%) tashkil qilgan. Shundan ko'rinish turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Sanoat, Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi va savdo faoliyat turiga to'gri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, Qurilish hamda Axborot va aloqa faoliyat turlariga to'gri keladi.


## Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



## Kichik korxona va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 fevral holatiga viloyatda faoliyat ko`rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 10,6 mingtani tashkil qilgan. Bu ko`rsatkich 2017 yil 1 fevral holatiga qaraganda 11,3% ga oshgan. Faoliyat ko`rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi yani 2408 tasi (22,7%) Termiz shahriga, 1304 tasi (12,3%) Denov, 850 tasi (8,0%) Jarqo'rg'on hamda 839 tasi (7,9%) Termiz tumanlari hissalariga to'gri keladi.

### Kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi, ming birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 10,6 mingta kichik korxona va mikrofirmalarning 3355 tasi (31,6%) – savdoda, 1688 tasi (15,9%) - sanoatda, 1497 tasi (14,1%) - qurilishda, 889 tasi (8,4%) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 991 tasi (9,3%) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 648 tasi (6,1%) - tashish va saqlashda, 221 tasi (2,1%) - axborot va aloqa sohasida, 172 tasi (1,6%) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 1148 tasi (10,9%) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'riniib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

### **Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da**




2018 yil 1 fevral holatiga bilan 0,3 mingdan ortiq kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 18,9 foizga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Termiz shahrida (43 ta), Denov (52 ta), Sho'rchi (34 ta) va Angor tumanlarida (30 ta) tashkil etilgan. Eng kam Oltinsoy (3 ta), Muzrabot (8 ta) hamda Sariosiyo (13 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (64 ta), boshqa turlarida (55 ta), sanoatda (53 ta), qurilishda (43 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (31 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (29 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (4 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (10 ta) va tashish va saqlashda (13 ta) tashkil etilgan.

## Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da


- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
- Sanoat
- Qurilish
- Savdo
- Tashish va saqlash
- Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- Axborot va aloqa
- Sog'lqn ni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish
- Boshqa turlari



## Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro`yxatidan o`tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 fevral holatiga 671 tani tashkil etib, ulardan 622 tasi yoki 92,7% faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni 37,7 %ga oshganligini ta'kidlash lozim.

### Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarning Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarning 35,0% yoki 218 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 26,4% yoki 164 tasi sanoat, 18,6% yoki 116 tasi savdo, 11,9% yoki 74 tasi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi, 1,9% yoki 12 tasi tashish va saqlash, 1,3% yoki 8 tasi qurilish, 0,6% yoki 4 tasi sog`liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko`rsatish hamda 4,2% yoki 26 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

## Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



## Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida tayyorlangan

# **Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi**

## **Statistik registrlarni yuritish bo'limi**

(0376) 223-06-95